

TIL VA MADANIYAT

ISSN 2181-922X

# UZBEKISTAN

## LANGUAGE & CULTURE

TARJIMASHUNOSLIK  
TRANSLATION STUDIES

2021 Vol. 1 (3)

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

# O'ZBEKISTON

ISSN 2181-922X

# O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

TARJIMASHUNOSLIK

# UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

TRANSLATION STUDIES

2021 Vol. 1 (3)

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:**

Abdumajid Mamadaliyev

**Bosh muharrir o'rinbosari:**

Anvar Sayfullayev

**Mas'ul kotib:**

Mahmadiyor Asadov

### **Tahrir hay'ati**

Ziyodaxon Teshaboyeva, Qosimboy Ma'murov, Bahodir Xoliqov, Odiljon Safarov, Nargiza Rashidova, Murtazo Saydumarov, Nurmurod Chiniqulov, Xulkar Turdiyeva, Oydin Tuychiyeva, Nigora Sulaymonova.

### **Jurnal haqida ma'lumot**

“O'zbekiston: til va madaniyat. Tarjimashunoslik” seriyasi – qiyosiy tilshunoslik, adabiyotshunoslik hamda tarjimashunoslik sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda ikki marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

“O'zbekiston: til va madaniyat. Tarjimashunoslik” seriyasi 2021-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi,  
103.

**Email:** uzlangcult@gmail.com

**Website:** www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

<b>Editor-in-Chief:</b>	Abdumajid Mamadaliev
<b>Deputy editor-in chief:</b>	Anvar Sayfullaev
<b>Executive secretary:</b>	Mahmadiyor Asadov

### **Editorial Board**

Ziyodakhon Teshaboeva, Kosimboy Mamurov, Bahodir Kholikov, Odiljon Safarov, Nargiza Rashidova, Murtazo Saydumarov, Nurmurod Chinikulov, Khulkar Turdieva, Oydin Tuychieva, Nigora Sulaymonova.

### **About the Journal**

*Uzbekistan: Language and Culture. Translation Studies* series is an academic journal that publishes works in the field of comparative linguistics, literary and translation studies.

The journal is published twice a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal publishes thesis and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

*Uzbekistan: Language and Culture. Translation Studies* series was launched in December 2021.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

**Email:** [uzlangcult@gmail.com](mailto:uzlangcult@gmail.com)

**Website:** [www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

# MUNDARIJA

## Tarjimashunoslik

### **Abdumajid Mamadaliyev**

Milliy kolorit va xos soʻzlar tarjimasidagi muammolar.....6

### **Ziyodaxon Teshaboeva**

“Boburnoma” dagi “koʻngil” leksik-semantik maydonidagi frazeologik birliklarning inglizcha tarjimalari qiyosiy tahlili.....16

### **Kosimboy Mamurov, Nargiza Tilakova**

Language and mind as mechanisms for poetic translation.....38

### **Anvar Sayfullayev**

Sinxron tarjima mashgʻulotlarni tashkil etishning maqsadi va mazmuni.....47

### **Odiljon Safarov**

Tarjimaning ijtimoiy va xalqaro ahamiyati.....60

### **Наргиза Рашидова**

Особенности перевода лексем сферы образования в арабском и узбекском языках.....76

### **Khulkar Turdieva**

Translation competence: persian loanwords in indonesian language.....89

### **Oydin Tuychiyeva**

Sharq adabiyotida ayollarga bagʻishlangan tazkiranavislik anʼanasining shakllanishi va tarjimalari.....100

### **Nigora Sulaymonova**

Mahmud Zamaxshariyning “Asosu-l-balogʻa” asari va unda frazeologizmlarning qoʻllanilishi.....115

### **Mahmadiyor Asadov**

Fransuz-oʻzbek tarjimachiligi istiqbollari.....125

### **Ilhom Xolmoʻminov**

Tarjimada ekvivalentlik nazariyasi.....135

# CONTENT

## Translation Studies

### **Abdumajid Mamadaliev**

Problems in the translation of national words and realia.....6

### **Ziyodakhon Teshaboeva**

Comparative analysis of english translations of phraseological units in semantic field "Soul" of "Baburname".....16

### **Kosimboy Mamurov, Nargiza Tilakova**

Language and mind as mechanisms for poetic translation.....38

### **Anvar Sayfullaev**

Purpose and content of organizing activities of simultaneous interpreting.....47

### **Odiljon Safarov**

The social and international significans of translation.....60

### **Nargiza Rashidova**

Specific features of education lexem translation in arabic and uzbek languages.....76

### **Khulkar Turdieva**

Translation competence: persian loanwords in indonesian language.....89

### **Oydin Tuychieva**

Traditions and translations of writing tadjiras in eastern literature dedicated to women.....100

### **Nigora Sulaymonova**

Mahmud Zamaxshariy's "Asosu-l-Balog'a" work and the application of phraseologisms in it.....115

### **Mahmadiyor Asadov**

Prospects for French-Uzbek translation.....125

### **Ilhom Kholmuminov**

The theory of equivalence in translation.....135

Council England, The Society of Authors, British Council, and Dalkey Archive Press.

Gʻulom, Gʻafur. 1983. Shum bola. Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti.

Gulom, Gafur. 2017. A Naughty Boy. Toshkent: Yangi asr avlodi.

Gulyam, Gafur. Ozornik. 2020. Tashkent: TGYuU. (perevod s uzbekskogo Aleksandra Naumova)

## “Boburnoma”dagi “ko’ngil” leksik-semantik maydonidagi frazeologik birliklarning inglizcha tarjimalari qiyosiy tahlili

Ziyodaxon Teshaboyeva<sup>1</sup>

### Abstrakt

“Boburnoma” jahon adabiyoti mulkiga aylanib ulgurgan, u o‘zbek adabiyotining yorqin namunasi bo‘lib, bugungi kunda uning uslubi, tarjimalari tarixi, tarjimonlar uslubini o‘rganish tarjimashunoslik sohasidagi yechiminini kutib turgan masalalarni hal etishga katta hissa qo‘shgan asar. Asar nafaqat xazina va qolaversa uning tarjimalari ham turli maqsadlarda o‘rganish uchun ilm manbaidir. Maqolada “Boburnoma”da qo‘llangan *ko’ngil* leksik semantik maydonidagi frazeologik birliklar va ularning o‘zbekcha, ruscha va uch turdagi inglizcha tarjimalari qiyosiy tahlil etiladi. Frazeologik birliklar milliy-madaniy xususiyatlari, tarjimada aks etish muammosi yoritib berilgan va ba’zi tarjima masalasida muallif uslubi havola qilingan. *Ko’ngil* leksik semantik maydoni va ularning inglizcha tarjimalari ajratib, ko‘rsatib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** “Boburnoma”, *ko’ngul*, *semantik maydon*, *tabdil*, *ruscha-inglizcha tarjima*, *frazeologik birliklar*.

### Kirish

Ko’ngil haqida so‘z borganda, uni somatik frazeologik birliklar qatoriga kiritish qandaydir nojoizdek tuyuladi. Chunki ko’ngil zamirida ruhiy, emotsional yoki mavhum bir tushunchani anglatadigan iborani ham tushinish mumkin. Ko’ngil kontsepti avvalo inson psixologiyasi bilan bog‘liq umumiy tushunchani anglatib, uning xarakteri, o‘y qarashi, mentalitetini baholab beradi. Ammo shuni qayd etish kerakki, o‘zbek tilida ko’ngil abstrakt tushuncha bo‘lsa ham, ko’ngilning o‘zi insonning qaysi a‘zosida joylashganini tasavvur etish nazarda tutilgan. Bu nuqtai nazardan inglizcha tarjimada somatik FBlar (frazeologik birlik) qatoriga kirishi yaqqol misol bo‘la oladi. Ingliz tilida ko’ngilga oid FBlar ko‘plikni tashkil etadi. Misol

<sup>1</sup> Ziyodaxon Teshaboyeva Qodirovna – filologiya fanlari doktori, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** teshaboyevaziyodaxon@navoiy-uni.uz

**ORCID:** 0000-0002-5917-756X

**Iqtibos uchun:** Teshaboyeva, Z.Q. 2021. “Boburnoma”dagi “ko’ngil” leksik-semantik maydonidagi frazeologik birliklarning inglizcha tarjimalari qiyosiy tahlili”. *O‘zbekiston: til va madaniyat* 1 (3): 16-37.



uchun, from the heart – от всей души. One’s heart goes out of smth – душа не лежит к чему либо, set one’s heart on smth – страстно желать что либо, possess one’s soul in patients – запастись терпением [Варданян 2006, 201] kabi ularni bir nechtasini keltirish mumkin. Ular ruscha-inglizcha tarjimalarini o’rgangan bo’lsa-da, hozirga qadar inglizcha-o’zbekcha tarjimalarda ham ko’ngil leksik-semantik maydonidagi FBlarning qiyosiy tadqiqi olib borilmaganligi bir jihatdan soha mutaxassislariga ayonligini anglatadi.

Ko’ngil tuyg’usi turli xil his hayajonga o’ta boy bo’lib, quyidagilarni o’z ichiga oladi: kayfiyat; qo’rquv hissi; his hayajon va boshqalar [Нуждана 2004]. Shuningdek mumtoz asar “Boburnoma”da dil, qalb, yurak, ko’ngil bilan bog’liq FBlar qo’llangan bo’lib, ko’ngilning kontseptosferasi turli mazmunni qamrab olgan u: *hazin ko’ngul, ko’ngul bermoq, ko’nglida ne dog’larkim yo’q, ko’ngli tilamoq, ko’nglug’a shubha kechmoq, ko’ngluga kechurmoq* kabi FBlari muallif tomonidan tarixiy personajlar xarakterining emotsional holatlarini ochib berishda, asarning jozibador jihatlari aks ettirishga xizmat qilgan. Ular turli shaxslar va turli voqea – hodisalar bilan bog’liq holatlarda yuzaga kelgan. Vaholanki, muallifning o’zi “Boburnoma”da ko’ngilning qahramoni desak xato bo’lmaydi. Ko’ngilning turlicha ma’noda aks etish masalasi quyidagi tasvirda yanada aniqroq ko’zga tashlanadi:

### 1-rasm. Ko’ngil leksik - semantik maydoni.



Muallifkayfiyati bilan bog‘liq ko‘ngul “Boburnoma”da asarning boshidan oxiriga qadar dil, yurak, qalb, vijdon, oxirat kechinmalari bilan kurashadi, hatto uning o‘y-qarashi, tizimli tahlili orqali – qalb kechinmalari bilan sayqallashadi. Ushbu tarixiy voqealar FBlarda o‘z ifodasini topgan bo‘lib, ular jangovar beklar siymosini ketma-ketlik bilan yoritib borishda, spontan holatda paydo bo‘ladi, bu esa asar muallifining qanchalik so‘z zargari ekanligidan darak beradi.

### 1-jadval

Ko‘ngil leksik semantik maydonidagi frazeologik birliklar tarjimasining jadvalda qiyosiy aks etishi

№	KO'NGUL Leksik semantic maydoni (asliyat)	Tabdil	Ruscha tarjima	Leyden- Erskin tarjimasi (1826)	Susanna Beverij tarjimasi (1921)	Vilyer Tekston tarjimasi (1996)
1.	<i>Ko'ngul ting'udek shofiy javob topmadim</i> [88-89].	Ko'ngul tingudek qoniqarli javob top- madim [87].	не получил ясного ответа, могущего успокоить сердце [63].	did not get such an explicit or satisfactory answer [102].	got no reply so clear as to remove them [102].	I did not receive a satisfactory answer [115- 116].
2.	<i>hazin ko'ngul</i> [185].	mahzun ko'ngil [190].	в мой слабый ум пришла та- кая [дума]: [151].	my heart was struck with regret [292].	troubled heart [449].	saddened heart [311].
3.	<i>ko'ngul berdim</i> [152].	ko'nglini ko'tardim [153].	ободрил [119].	spoke encouragingly to him [218, 219].	to give him heart [320].	to give him courage [242].
4.	<i>ko'ng- lida ne dog'larkim yo'q</i> [122].	ko'nglida egriligi bor [122].	что в серд- це Насир мирзы оставалась обида [93].	some disaffec- tion influ- enced Nasir Mirza [167].	want of heart the Mirza did not follow [241].	Mirza's heart was crooked, [181].
5.	<i>Har nechuk ko'ngli tilar o'ynar edi</i> [134].	Ko'ngli tila- sa, shunday o'ynardi [134].	Он играл сколько душе угод- но. [104].	He played without art, just as his fan- cy suggested. [186].	he played it accord- ing to his own fancy [275].	put his whole heart and soul into playing however he wanted [206].

6.	<i>Ko'nglumg'a shuha kehti</i> [217].	Ko'nglumga shubha tushdi [228].	В сердце у меня мелькнуло сомнение [178].	Some suspicion crossed my mind [348].	I became suspicious [542].	A cloud of suspicion came over my mind [373].
7.	<i>Ko'nglumg'a kechurdimki</i> [242].	Ko'nglumdan o'tqazdimki [255].	я решил в своем сердце [200].	I indulged a hope [388, 389].	I laid it to heart [619,620].	I put my confidence in [420].

Ko'ngul bermoq FBi hozirgi adabiy tilda sevib qolmoq ma'nosida qo'llanadi, lekin "Boburnoma"da unday emas. Aslida, erkak kishi bilan bo'layotgan munosabat tasvirlangan bo'lib, (Mirzoxonning holati) ko'nglini ko'tarmoq ma'nosida qo'llangan. Ushbu hodisa uning beklaridan biri bo'lgan Ahmad Qosim Ko'hbur haqidagi ma'lumot orqali masalaga oydinlik kiritamiz:

Ahmad Qosim Ko'hbur – Bobur davrida siyosiy voqealarda faol ishtirok etgan bek. Bobur Samarqandni olganda Abulqosim Ko'hburning ukasi Ahmad Qosimni unga ko'makka yuborgan. Bobur Shayboniyxondan yengilib, Samarqandni tashlab chiqqanda, Ahmad Qosim Ko'hbur undan ruxsat olib O'ratepaga kelgan, keyin esa Ahmad Tanbalga borib qo'shilgan (1501 yil). Bir qancha vaqt Axsida Ahmad Tanbalning ukasi Shayx Boyazid huzurida xizmat qilgan. Keyinchalik yana Bobur tomoniga o'tgan (1504 – 1405yy). Bobur Hisorga kelganda Ahmad Qosim Ko'hbur uning yonida bo'lgan. Bobur Kobul viloyatini egallaganidan so'ng, Sulton Husaynning o'g'illari bilan Shayboniyxonga qarshi kurashish maqsadida Xurosonga safar qilganida, viloyatni boshqarishni Ahmad Qosim Ko'hbur, Ahmad Yusuf, Boboyi Pashog'ariy va Muhibali Qo'rchiga topshirib ketgan. 1506 yil Mirzoxon va Muhammad Husayn Ko'ragon isyon ko'tarib, Kobulni qamal qilganda Boburning beklari qo'rg'onni o'z qo'llarida saqlab turgan. Bobur qaytib kelgach, isyon bostirilgan. Qochgan Mirzoxonni tutib kelish uchun Bobur Ahmad Qosim Ko'hbur boshliq guruhni otlantirgan [Бобур энциклопедияси 2014, 59].

Podshohning gunohkor va unga qarshi bosh ko'targan shaxsning ko'nglini ko'tarish, uning qo'rquvni yengish xatti-harakatida namoyon bo'lgan, ushbu ko'rinish FB orqali quyidagi misolda aks etgan: *Ahmad Qosim Ko'hbur va yana ba'zi bir necha yigitnikim, Mirzoxonning so'ngicha yiborib edi, Qarg'a buloq pushtalarida Mirzoxong'a yetarlar, qocha olmas, ilik tebratguncha quvvat va jur'ati ham yo'q edi, olib keldilar. Men eski devonxonaning sharqi-shimoliy sorig'i ayvonida o'lturub erdim, men dedimki, kel ko'rushaling. Oldarag'ondin yukunub kelguncha ikki qatla yiqildi,*

*ko'rushgandin so'ng, yonimda o'lturg'uzub, ko'ngul berdim* [Бобур 2002,152].

Ko'ngul bermoq nafaqat asliyatda FBdir, qolaversa u tabdilda ham o'z ifodasini saqlagan. – Mirzoxonning ortidan yuborilgan Ahmad Qosim ko'hbur (tog'kesar) va yana bir necha yigitlar Qarg'abuloq qirlarida Mirzoxonga yetadilar. U qocha ham olmasdi, qo'l ko'tarishga ham quvvat va jur'ati yo'q edi, olib keldilar. Men eski devonxonaning sharqi-shimoliy tomonidagi ayvonda o'tirgandim. Men: **“Kel ko'rishaylik”**, dedim. Dovdiraganidan egilib kelguncha ikki marta yiqildi. Ko'rishgandan so'ng, yonimda o'tqazib, **ko'nglini ko'tardim** Бобур 2008,153].

Ushbu asliyat misolining rus tilidagi tarjimasida ham asliyat mazmuni yorqin ifoda etilgan. – Ахмед Касим Кухбур и те несколько йигитов, которые были посланы вслед Мирзахану, настигли его у холмов Карга Булака. Он не мог бежать и не имел ни силы, ни смелости, чтобы пошевелить рукой. Его привели [ко мне]. Я сидел в старом здании дивана, под портиком, на северо-восточной стороне. **«Подойди сюда, поздороваемся!»** – сказал я. Мирзахан до того растерялся, что, прежде чем подойти и преклонить колени, два раза упал. Поздоровавшись с ним, я посадил его с собою рядом и **ободрил**. Принесли питье. Чтобы рассеять страх Мирзахана, я сначала выпил сам, потом дал ему [Бабур 2008, 119].

Tarjimadan seziladiki, ko'ngul berdim oddiy so'z birikmasi **ободрил** – ko'nglini ko'tardim tarzida aks etgan. Rus tilidagi tarjimada garchi FB bo'lmasa ham **«Подойди сюда, поздороваемся!»** *kel ko'rushaling* gapini adekvat tarzda aks etganligini ko'ramiz, lekin inglizcha tarjimalarda asliyat mazmunidan uzoqlashib ketganligi ham seziladi. Buning isbotini quyida inglizcha tarjimalarda kuzatamiz.

*Ahmad Qosim Ko'hbur va yana ba'zi bir necha yigitnikim, Mirzoxonning so'ngicha yiborib edi, Qarg'a buloq pushtalarida Mirzoxong'a yetarlar, qocha olmas, ilik tebratguncha quvvat va jur'ati ham yo'q edi, olib keldilar. Men eski devonxonaning sharqi-shimoliy sorig'i ayvonida o'lturub erdim, men dedimki, kel ko'rushaling. Oldarag'ondin yukunub kelguncha ikki qatla yiqildi, ko'rushgandin so'ng, yonimda o'lturg'uzub, ko'ngul berdim.*

J. Leyden va V. Erskinning tarjimasida:

Ahmed Kasim Kuhber, and the party who were sent in pursuit of Khan Mirza, overtook him among the hillocks of Kurghe-Yelak. He was unable to flee, and had neither strength nor courage enough

to fight. They took him prisoner, and brought him before me. I was sitting in the old Divankhaneh (or Hall of Audience), in a portico on its north-east side, when he was brought. **I said, "come and embrace me."** From the agitation in which he was, he fell twice before he could come up and make his obeisance. After we had saluted I seated him at my side, and **spoke encouragingly to him** [Leyden 1826, 219]. – Ahmad Qosim Ko'hbur Xon Mirzoni ta'qib qilish uchun yuborilgan qo'shinlari bilan uni Kurge-Elak tepaliklarida quvib yetdilar. U qochib qutula olmadi va jang qilishga na kuchi, va na jasorati bor edi. Uni asir olib, oldimga keltirishdi. Uni olib kelganda, men eski Divanxonada (yoki tomoshabinlar zalida), uning shimoli-sharqiy qismida joylashgan supada o'tirardim. Men: **"Kel va meni quchoqla"**, dedim. U hayajonlanganidan yonimga kelgunga qadar ikki marta yiqilib, tiz cho'kdi. Biz salomlashganimizdan keyin uni yonimga o'tqazib, **ko'nglini ko'tarib, suhbatlashdim**.

Tarjimonlar birinchidan asliyatdagi shaxs nomlari: Mirzoxoni Xon Mirzoga o'zgartirgan; joy nomlari Qarg'a buloq – Kurge-Elakka; devonxona – Divankhaneh va qavs ichidagi (or Hall of Audience - yoki tomoshabinlar yoki qabul zali), ayvon esa portico deb berilgan. Biz nazarda tutgan ko'ngul berdim – **spoke encouragingly to him** – ko'nglini ko'tarib suhbatlashdim, tarzida tarjima qilingan. Joy nomlariga izoh berilmagan yoki kursivga ham olinmagan. Asliyat misoli S. Beverij tarjimasida quyidagicha berilgan:

Ahmad-i-qasim Kohbur and the party of braves sent in pursuit of Mirza Khan, overtook him in the low hills of Qargha-yilak, not able even to run away, without heart or force to stir a finger! They took him, and brought him to where I sat in the north-east porch of the old Court-house. Said I to him, **"Come! Lets have a look at one another"** (kurushaling), but twice before he could bent the knee and come forward, he fell down through agitation. When we had looked at one another, I placed him by my side **to give him heart**, and I drank first of the sherbet brought in, in order to remove his fears [Beveridge 1921, 320]. – Ahmad-i-qosim Ko'hbur va Mirza Xonni ta'qib qilish uchun yuborilgan bahodirlar unga Qarg'a – yiloqning past tepaliklarida quvib yetdilar, u yuraksiz va qochish tugul hatto barmog'ini qimirlatishga ham qodir emas edi! Uni tutib olib, eski qarorgoh binosining shimoli-sharqiy ayvoniga, men o'tirgan joyga olib kelishdi. Men unga **"Kel! Bir-birimizga qaraylikchi"** (ko'rishaylik), dedim, lekin tizzasini egib, oldinga o'tishdan avval asabiylashganidan yiqilib tushdi. Biz bir birimizning ko'zimiz ko'zimizga tushganida uning qalbiga taskin berish uchun yonimga

o'tqazdim va uning qo'rquvini yo'qotish maqsadida berilgan sharbatni avval o'zim ichdim, keyin unga berdim.

S. Beverijdagi FB ko'ngul bermoq inglizcha *to give him heart* so'zma so'z tarjima qilinsa, *to give him heart* o'zbek tiliga unga yurak bermoq, deb o'giriladi, tarjima tilida esa qalbgga taskin bermoq deb anglashiladi. S. Beverij tarjimasidagi *I drank first of the sherbet brought in* – *Keltirilgan sharbatni birinchi o'zim ichdim* deb tarjima tilida berilsa, berilgan sharbatni avval men ichdimga o'zgartirib interpretatsiya qilinadi, mazmun va shakl til tizimiga solinadi. Bu bilan asliyatni har bir tarjimon avvalo o'zining tiliga o'girishlari, tarjimaning pragmatik faktorlar rolini ko'rsatadi. Tarjimon asar mazmunini qayta yaratishda o'zi anglab yetgan asliyat mazmuni atrofida aylanar ekan, hodisalar bilan bog'liq jarayon va so'z mazmuniga e'tibor qaratib, tafakkurida qayta ishlaydi, so'ng o'zining tiliga o'giradi va oxir oqibat uning yozma nutqida vujudga keladi. S. Beverij madaniy qadriyatlardan bo'lgan Bobur bilan Mirzoxon munosabatidagi *kel ko'rushalingning* asl ma'nosini aks ettira olmaydi va *"Come! Lets have a look at one another"* (kurushaling), *"Kel! Bir-birimizga qaraylikchi"* (ko'rishaylik) deb noto'g'ri tarjima qiladi. Asliyat mazmunini qayta yaratish V. Tekstonning tarjimasida qanday aks etganligini quyidagi misolda ko'ramiz:

Ahmad Qasim Kohbur and the few other warriors who had been sent in pursuit of Mirza Khan caught up with him in the hills of Qargha Yaylagh. He was unable to flee; indeed, he did not have the strength or the audacity to wave his hand. They seized him and brought him in to me while I was seated in the portico on the northeastern side of the old *divankhana*. **"Come," I said, "let us see each other"** In his confusion he stumbled twice by the time he knelt and came forward. After our interview I had him sit beside me **to give him courage**. I had sherbet brought; to lessen his fear I tasted the sherbet first, then offered it to him [Thackston 1996, 242]. – Mirzo Xonni ta'qib qilish uchun yuborilgan Ahmad Qosim Ko'xbur va boshqa bir qancha jangchi beklar uni Qarg'a Yayloq tepaligidan ushlab keltirishdi. U qochib qutula olishga; haqiqatanda qo'lini ko'tarishga na kuchi va na dadilligi (jur'ati) bor edi. Men eski devonxonaning shimoli-sharqiy ayvonida o'tirganimda uni ushlab, oldimga olib kelishdi, **"Kelinglar, bir-birimizga qaraylik"**, dedim. O'zining sarosimaga tushganidan tiz cho'kish uchun oldinga chiqayotgan mahalda ikki marta to'ntarildi. Suhbatimizdan so'ng, men unga dalda berish uchun yonimga o'tqazdim. Men sharbat keltirtirdim. Uning qo'rquvini yo'qotish uchun avval sharbatni o'zim ichdim, so'ng unga



taklif qildim.

V.Tekston asliyatdagi ko'ngul berdim iborasini infinitiv to give him courage – unga dalda berish orqali o'giran, asliyatdagi realiya va qadriyat kel ko'rushaling esa uning tarjimasida ham to'liq aks etmagan. Asliyatning uch misoli qo'lini ko'tarishga na kuchi va na dadilligi (jur'ati) bor edi, ko'ngul berdim, Kel ko'rushaling jumllarining tarjimalarini yana bir bor ko'z oldimizga keltiraylik:

J.Leyden va V.Erskinda:

1. was unable to flee, and had neither strength nor courage enough to fight – na kuchi, va na jasorati bor;

2. I said, **"come and embrace me."** – **"Kel va meni quchoqla"**, dedim;

3. spoke encouragingly to him – ko'nglini ko'tarib, suhbatlashdim.

S.Beverijda:

1. not able even to run away, without heart or force to stir a finger! – barmog'ini qimirlatishga ham qodir emas edi;

2. **"Come! Lets have a look at one another"** (kurushaling) – **"Kel! Bir-birimizga qaraylikchi"** (ko'rishaylik), dedim;

3. to give him heart – qalbiga (yuragiga) taskin berish uchun.

V.Tekstonda:

1. he did not have the strength or the audacity to wave his hand – qo'lini ko'tarishga na kuchi va na dadilligi (jur'ati) bor;

2. **"Come," I said, "let us see each other."** – **"Kelinglar, bir-birimizga qaraylik"**, dedim;

3. to give him courage – dalda berish uchun tarzida tarjima qilganlar.

Tarjimalardan ko'rinadiki, inglizcha J.Leyden va V.Erskinning variantlari asliyatga yaqinroq. Tarjimonlar o'zlarining tarjima uslubini yuzaga keltirib, mazmun adekvatligini ta'minlashdagi urinishlari sezilgan, har uch turdagi variantlar FB tarjimasida xatolikka uchramasa-da, gapning yonida qadriyatni aks ettirgan ko'rishmoq yoki kishi va joy nomlari va boshqa so'zlarning tarjimasida kamchiliklar yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu jihat, madaniy qadriyat faqat til sohibiga ayonligi, FB'larni adekvat tarzda aks ettirish yetarli darajada murakkabligini ko'rsatadi. Asliyat misolini esa biz quyidagicha tarjima qilgan bo'lar edik:

Ahmad Qasim Kohkbur and the few cavalrymen who were sent in pursuit of Mirzaxan caught up with him in the hills of Kargha Bulak. He could not run away and had neither the strength nor the courage to skirmish. He was brought to me where I sat in the old

*divankhana* (headquarter) under the portico, on the northeast side. **"Come! And let's get each other saluted!"** - I said. Mirzakhan was so confused and fell down two times before coming up and kneeling. Having been greeted, I sat him next to me and **encouraged**. They brought a drink. To dispel Mirzakhan's fear, I drank it myself first, then gave it to him.

Asar qadriyatlarini ifodalaydigan frazeologik iboralarga shunchalik boyki, uning tarjimalarini qiyosiy tadqiq etish jarayonida bir muammoni hal etib, ikkinchi va uchinchisiga duch kelishimiz mumkin. Mumtoz asardagi FBlar ekvivalenti birining ikkinchisi o'rnida kelishi kuzatiladi. Bu esa turkiy tilning o'ziga xos, mubham iboralarga boy ekanligiga dalildir.

"Boburnoma" da ko'nglida *ne dog'larkim yo'q edi*, iborasining mazmuni esa aksincha ko'nglida dardi yoki alami bor, kontrast ma'noda qo'llanadi. *Bularkim necha yillar mirzog'a yog'iyliqlar qilib, anvo' beadabliqlar bulardin zohir bo'lub edi, bulardin mirzoning ko'nglida ne dog'larkim yo'q edi, barchalari mening sababimdin mundoq xorliq va zorliqlar bila borib mirzoni ko'rdilar* [Бобур 2002, 123]. – Bular necha yillar mirzoga dushmanlik qilib, yuz xil odobsizliklar ko'rsatgan, ulardan mirzoning **ko'nglida qancha dog'lar yo'q edi, deysiz!** Barchalari men tufayli bunday xorlik va zorliklar bilan borib mirzoni ko'rdilar [Бобур 2008, 122]. Asliyat matnining mazmuni ruscha tarjimada ham muqobil aks etgan. – Эти люди, которые столько лет враждовали с Мирзой и оказывали ему всякие неучтивости (**каких только язв не было** из-за них у Мирзы **на сердце!**), теперь из-за меня, отправились к Мирзе в столь жалком и униженном состоянии и встретились с ним [Бабур 2008, 94]. Tarjimon asliyat mazmunini biz ta'kidlagandek to'liq o'zlashtirgan va tarjimada aks ettirishga harakat qilgan. Tabdil va ruscha variant asliyat mazmuni bilan hamohangdir. Ushbu misol inglizcha J.Leyden va V.Erskinda quyidagicha beriladi:

... who for a series of years had been at open enmity with the Mirza, and had subjected him **too many insults, the old sores of which were still rankling in his heart**, now all went in such a state of distress and humility, to present themselves before him [Leyden 1826, 167, 168]. – ... bir necha yillar davomida Mirzoga ochiqchasiga dushmanlik qilib kelgan va ko'p haqoratlar qilib, Mirzoning yuragida **hali hanuzgacha eski yaralari bor ediki**, endi ularning hammasi o'zlarini ko'rsatish uchun shuncha xafagarchilikdan keyin ham uning oldida kamtarlik holatida bo'lib edilar. J.Leyden va V.Erskinlar too many insults, the old sores of which were still rankling in his



heart – yuragida hali hanuzgacha eski yaralari mavjud ediki, tarzida antonimik tarjima usulini qo'llangan, biz nazarda tutgan gap shaklidagi ibora ko'nglida ne dog'larkim yo'q edi deb berilsa-da, asliyatning to'liq mazmunini qamrab ololmagan, sababi now all went in such a state of distress and humility, to present themselves before him, ya'ni endi ularning hammasi o'zlarini ko'rsatish uchun shuncha xafagarchilikdan keyin ham uning oldida kamtarlik holatida bo'lib edilar (tarjimasi) gapi esa Bobur ta'kidlagan barchalari mening sababimdin mundoq xorliq va zorliqlar bila borib mirzoni ko'rdilarning mazmunini to'liq qamrab olmaganligini ko'rsatadi. Asliyat misolini navbatdagi S.Beverij tarjimasida kuzatamiz:

All had long been foes of his; all had behaved unmannerly to him; **what brands had they not set on his heart!** Yet all now went to him; in their distress, and all went through me [Beveridge 1921; 243]. – Ularning barchasi uzoq yillardan buyon uning dushmani bo'lib kelgan, unga insoniy munosabatda bo'lishmagan; **uning qalbida yana qanday dog'lar qoldirishmadi, deysiz!** Endi mening ko'nglimdan o'tolmay, asabiylashsa ham ularning barchasi men tu-fayli uning yoniga bordi.

S.Beverij tasviriy tarjimani qo'llagan, what brands had they not set on his heart! – uning qalbida yana qanday dog'lar qoldirishmadi, deysiz! tarzida tabdil va asliyat mazmuniga yaqin aks ettirgan deb aytishimiz mumkin. V.Tekston ham nazarda tutgan misolni quyidagicha o'giran:

These were the very men who had rebelled against the mirza for so many years and who by their many breaches of etiquette **had left not a few scars on the mirzas heart.** They had all left my presence in disgrace and misery and sought the mirza [Thackston 1996, 182]. – Bu odamlar mirzaga ko'p yillar davomida qarshi chiqqanlar va ko'p odob-axloq qoidalarini buzgan holda mirzoning **yuragida bir necha iz qoldirmagan edilar.** Ularning barchasi mening oldimda behurmat va beyuzlik bilan chiqib, mirzani qidirdilar.

V. Tekston ko'nglida ne dog'larkim yo'q edi gapini *had left not a few scars on the mirzas heart* – mirzoning yuragida bir necha iz qoldirmagan edilar, tarzida aks ettirgan bo'lsa, so'nggi ingliz tilidagi gap – *They had all left my presence* – ularning barchasi mening oldimdan (ko'z oldimda) chiqdilar deb berilgan; in disgrace and misery esa, sharmanda va baxtsiz holatda (so'zma-so'z) va and sought the mirza – va mirzani qidirdilar tarzida o'girilgan. V. Tekstonning tarjimasi asliyat mazmunini to'liq qamrab ololma-

gan va qisman S.Beverijning varianti mos kelsa, birinchi amalga oshirilgan J. Leyden va V. Erskin tarjimasini aslidan yaqinroqligi bilan diqqatga sazavor.

Asarni o'rganish va tarjima jarayonida undagi iboralarning ma'no tovlanishlari, badiiy jozibasiga ham alohida e'tibor berish darkor. Zero, so'zlar, ifodalar ma'nosini yaxshi anglamay turib, asar zamiriga yashiringan mazmun teranliklarini idrok etish aslo mumkin emas [Олимов 2002, 76] "Boburnoma"da qo'llangan yana bir ko'nglida egriligi bor edi F.Bi esa, muallif o'zining qondoshi, ya'ni ukasi Nosir Mirzoga nisbatan bayon etganini ko'ramiz. *Darayi Nur kishisi chiqib parishon borg'on chopqunchini tebratgan bila o'zgarlar ham tura olmaslar, qocharlar. Bir pora kishini o'turub qalin ot va yaroq oldilar. Ul cherikdakim, Fazlidek kishi sardor bo'lg'ay, holi ush-mundoq-o'q bo'lg'usidur. Bu jihatdinmu yo Nosir mirzoning ko'nglida egriligi bor edi, ul jihatdinmu bizning so'ngimizcha kelmadi, qoldi* [Бобур 2002, 122]. Bu misolni biz mazmunini tavsiflash orqali dalillaymiz:

Nosir Mirzo (1487, Andijon – 1513, G'azni) – Boburning ukasi. Onasi – Umid og'acha. Umarshayx Mirzo bu o'g'liga Vays Log'ariyni bekatka qilib tayinlagan. Umarshayx Mirzo vafot etganida Nosir Mirzo Kosonda bo'lgan. Sulton Ahmad Mirzo va Sulton Mahmudxon Farg'onani Boburdan tortib olish maqsadida yurish qilganida (1494 y.) Vays Log'ariy Nosir Mirzoni Sulton Ahmad Mirzo huzuriga olib borgan. Bobur Kobulga yo'l olganda, Nosir Mirzo akasi bilan birga ketgan (1504 y.). Bobur unga Ningnavor, Mandirovar, Darai Nur, Kunar, Nurgil, Chag'onsaroy tumanlarini bergan. U Boburning Bangash va Banu viloyatlarini bo'ysundirishda ishtirok etgan. 1505 yil Boburdan yuz o'girib, Badaxshonga kelgan va mahalliy beklar yordamida hokimiyatni qo'lga olgan. Ikki yilga yaqin hukmronlik qilgach, badaxshonlik Muborakshoh, Muhammad Qo'rchi va boshqa beklar undan norozi bo'lib, isyon ko'targan. Nosir Mirzo jangda yengilib, bor-budidan ayrilib, yana Bobur huzuriga Kobulga borgan. Boburning Qandahorga qilgan yurishida ishtirok etgan (1507 y.). Bobur uni Qandahorga hokim etib tayinlagan. Muhammad Shayboniyxon Qandahorni qamal qilganida, Nosir Mirzo Qandahordan chiqib G'azna tomonga – kichik akasi Jahongir Mirzo mulkiga qochib ta'qibdan qutuladi. Bu vaqtda Jahongir Mirzo vafot etadi va Bobur uning o'rniga Nosir Mirzoni tayinlaydi. Bobur 1511 yili Samarqand yurishiga ketganida Kobulni Nosir Mirzoga topshirgan edi. Biroq Bobur Hisorga chekinib, so'ngra Kobulga qaytishga majbur bo'ldi. Bobur ukasiga Kobulni yaxshi saqlagani uchun minnatdorchilik

bildiradi va G'azniga jo'nash haqida buyruq beradi. Biroq u jo'nab ketishga ulgurmay vafot etadi [Бобур энциклопедияси 2014, 360].

Ko'nglida egriligi bor FBining Boburning ukasi Nosir Mirzoga nisbatan qo'llangani tabdilda quyidagicha aks etgan. – Darayi Nur odamlari chiqib parokanda talonchilarni zo'rlab orqaga surishlari bilan boshqalar turish bermay qochadilar. Dushman tomondagilar bir guruh kishini o'ldirib, ot va yarog'larini tortib oladi. Lashkarga Fazlidek kishi sardor bo'lsa, holi mana shunday bo'lg'usidir. Shu sababdanmi yo Nosir mirzoning ko'nglida egriligi bor edimi – bizning izimizdan kelmadi, qoldi [Бобур 2008, 122]. Ushbu misol mazmuni ruscha tarjimada ham to'liq aks etgan. – Жители Дарай Нура прогнали разъехавшихся в разные стороны добытчиков; остальные тоже не могли устоят и побежали; перебив часть людей, враги забрали много коней и оружия. Если над войском начальствует человек, подобный Фазли, положение его всегда будет таково. Но этой ли причине или потому что **в сердце** Насир мирзы **оставалась обида**, но он не пришел следом за нами и отстал от нас [Бабур 2008, 93]. – Darai Nur aholisi talonchilarni turli tomonga haydab yuborishdi; qolganlarini ham qarshilik ko'rsatolmay tarqab har tomonga yugurib ketishdi; dushmanlar ko'plab otlarni va qurollarni tortib olishdi. Agar Fazli singari odam armiya qo'mondoni bo'lsa, uning ahvoli har doim shunday bo'ladi. Shu sababdanmi Nosir Mirzoning qalbida xafachiligi bormidi yoki yo'qmidi, lekin u bizning ortimizdan kelmadi va bizdan orqada qoldi.

Ruscha tarjimadagi "Boburnoma"da qo'llangan ko'nglida egriligi bor edi FBi --**В сердце** Насир мирзы **оставалась обида** – Nosir Mirzoning qalbida xafachiligi bormidi yoki yo'qmidi, tarzida o'girilgan. Asliyat matni inglizcha J. Leyden va V. Erskinda quyidagicha tarjima qilinadi:

The men of Dereh-Nur, immediately sallying forth, attacked the plunders who were scattered for pillage, and routed them; and no sooner were they discomfited, than the rest of the army unable to maintain their ground, also took to flight. Many were slain, and many horses and arms taken. Such will always be the fate of an army that has a general like Fazli. **Whether it was from this circumstance, or whether some disaffection influenced Nasir Mirza**, he did not follow me, but stayed behind [Leyden-Erskine 1826, 167]. Dara – Nur odamlari darhol yashirincha talon taroj uchun qoldirilgan odamlarga hujum qilib, ularni talon-taroj qilishdi va ular bezovtalanib, qolgan qo'shimchalari ham o'z joylarida turmay qochib ketishdi. Ko'pchilik o'ldirildi, ko'plab otlar va qurol aslahalar tortib olindi. Fazlidek

generalga ega bo'lgan armiya taqdiri hamisha shunday bo'lgan. *Bu vaziyatdan kelib chiqdimi yoki biron bir norozilik Nosir Mirzoga ta'sir qildimi* u menga ergashmadi va ortda qoldi.

Asliyatdagi ko'nglida egriligi bor edi – Whether it was from this circumstances, or whether some disaffection influenced Nasir Mirza gapida aks etib – Bu vaziyatdan kelib chiqdimi yoki biron bir norozilik Nosir Mirzoga ta'sir qildimi tarzida o'girilgan. J. Leyden va V.Erskinda mazmun tasviriy vositalar orqali aks ettiriladi. Asliyat misolini inglizcha S. Beverij tarjimasida ham kuzatish mumkin:

The Mirzas commander, Fazli, in found so impracticable and in that one-road tract, instead of guarding his men, scattered them to forage. Out came the salesmen, drove the foragers off, made it impossible to the rest keep their ground, killed some, captured a mass of others did of horses, – precisely what would happen to Any army fancying to be under such a person as Fazli! **Whether because this affair or whether from want of heart the Mirza** did not follow us at all; he stayed behind [Beveridge 1921, 241]. – Mirzoning lashkarboshisi Fazli bu imkonsiz deb topilgan va bir taraflama yo'lda odamlarni qo'riqlash o'rniga bor budini talagan. Tashqaridan kelgan sotuvchi savdogarlarni haydab solgan, qolganlarini ham joylarni saqlashga imkon bermay, ba'zilarini o'ldirgan, boshqalarining otlarini tortib olgan. Aniqrog'i Fazlidek odamga xizmat qilish istagi uchun kurashayotgan har bir armiyaning holiga nima ham bo'lardi! *Bu ish uchunmi yoki Mirzoning yurakdan xohishi uchunmi* umuman u bizga itoat qilmadi; shunday qilib u ortda qoldi.

Asliyatdagi ko'nglida egriligi bor edi inglizcha: Whether because this affair or whether from want of heart the Mirza gapidagi – Bu ish uchunmi yoki Mirzoning yurakdan xohishi uchunmi tarzida o'girilgan. Asliyat misoli V.Tekston tarjimasida quyidagicha tarjima qilingan:

When the Dara-i-Nur people pressed the scattered raiders back, the soldiers were unable to maintain their position and fled. A few were killed and many horses and arms were seized. This is bound to happen under the command of someone like Fazli! **Either for this reason or because Nasir Mirzas heart was crooked,** Nasir did not follow us and stayed where he was [Thackston 1996, 181]. – Darayi Nur aholisi tarqoq bosqinchilarni orqaga bostirganda, askarlar o'z pozitsiyalarini ushlab qololmadilar va qochib ketdilar. Bir necha kishi o'ldirildi, ko'plab otlar va qurol aslahalar tortib olindi. Bu Fazli kabi birovning buyrug'i ostida amalga oshishi shart! Shu sababdan yoki *Nosir Mirzoning yuragi buzuq – fikri buzuq bo'lganligi*

*sababli* Nosir biz bilan yurmadi va o'zi turgan joyda qoldi.

Tarjimalardan ko'rinadiki, J.Leyden va V.Erskinda asliyatda keltirilgan ko'nglida egriligi bor edimi jumlasini *this circumstances, or whether some disaffection influenced* – biron bir norozilik (Nosir Mirzoga) ta'sir qildimi tarzida berilsa, S.Beverijda *want of heart (the Mirza) (Mirzoning)* yuragida (bir) xohish-istagi bor tarzida o'girilgan, V.Tekston ushbu jumlaning *heart was crooked* yuragi buzuq- fikri buzuq, ko'ngli qora, ichi qora mazmunlari bo'lgan fikrga ishora qilgan. Asliyat mazmuniga ba'zida J.Leyden va V.Erskin tarjimasi yaqin kelsa, ba'zida S.Beverij va V.Tekston tarjimasi mos tushganligiga amin bo'lamiz. Ayni paytda, V.Tekston tarjimini fors tilidan amalga oshirgani e'tiborga loyiqdir.

Mashhur voqealardan biri Boburning zaharlanish hodisasini yodga olsak, ko'ngil bilan bog'liq jarayonni aks ettirishda ko'nglug'a shubha kechmoq FBI qo'llanganligini kuzatish mumkin: *Obxonag'a borg'uncha yo'lda yana qusayozdim. Obxonag'a borib, qalin qustim. Hargiz oshdin so'ng qusmas edim, balki ichganda ham qusmas edim. Ko'nglumg'a shubha kechti. Bovurchini saxlatib buyurdimkim, ul qayni itga berib, itni saxlag'aylar* [Бобур 2002, 217]. – Obxonaga borguncha yo'lda yana bir bor qusib yuboray dedim. U yerga kirgach, ko'p qusdim. Men hech qachon ovqatdan keyin, hatto ichganimda ham qusmasdim. **Ko'nglimga shubha tushdi.** Oshpazni ushlab turishlarini va ushbu qusuqni itga berib, itni qo'riqlab turishlarini buyurdim [Бобур 2008, 228]. Ushbu parchaning ruscha tarjimasi esa mana bunday: Ko'nglumg'a shubha kechti ya'ni tabdildagi Ko'nglimga shubha tushdi misoli gap shaklidagi FBdir. Ushbu misollar mazmuni ruscha tarjimada ham aks etganligini shohidi bo'lamiz. – Пока я шел до нужника, меня еще раз чуть не вырвало; в нужнике меня обильно стошнило. Раньше меня никогда не рвало после еды, даже при попойках меня не тошнило. **В сердце у меня мелькнуло сомнение.** Я приказал задержать повара и велел дать блевотину собаке и стеречь ее [Бабур 2008, 178]. – Xojatga borayotganda, yana qusayozdim; obxonada men juda ko'p qusdim. Avvallari men ovqatdan keyin hech qachon qusmaganman, hatto ichganimda ham o'zimni yomon his qilmaganman. **Yuragimda shubha chaqnadi.** Men oshpazni xibsga olishini buyurdim va qusuqni itga berib, uni qo'riqlashni buyurdim.

Ko'nglumg'a shubha kechti ruscha tarjimada **В сердце у меня мелькнуло сомнение** – Yuragimda shubha chaqnadi (so'zma-so'z) demak, ko'nglimda shubha tug'ildi FB orqali tarjimada aks etmoqda. Inglizcha tarjimar ham o'ziga xos bo'lib, J.Leyden va

V.Erskin tarjimalarida quyidagicha aks etadi:

When I had got in front of the water-closet I vomited a great deal. "I had never before vomited after my food, and not even after drinking wine. **Some suspicion crossed my mind.** I ordered the cooks to be taken into custody, and desired the meat to be given to a dog, which I directed to be shut up [Leyden-Erskine 1826, 348]. – Xojatxonaning oldida turganimda, men juda ko'p qusdim. Men avvallari ovqatdan keyin hech qachon qusmaganman, hatto sharob ichganimda ham. Ba'zi shubha miyamdan o'tdi. Men oshpazlarni xibsga olishni buyurdim va yomon go'shtni itga berishlarini so'radim, itni saxladim.

Ko'nglumg'a shubha kehti J.Leyden va V.Erskinda **Some suspicion crossed my mind** ya'ni Ba'zi shubha miyamdan o'tdi tarzida berilgan bo'lib, ul qayni itga berib, itni saxlag'aylarni desired the meat to be given to a dog, which I directed to be shut up uning mazmuni – Men oshpazlarni xibsga olishni buyurdim va yomon go'shtni itga berishlarini so'radim, itni saxladim, tarzida tarjima qilangan. Asliyat matnining S. Beverij tarjimasida:

At last I saw it would not do, got up, went retching every moment of the way to the water-closet (ab-khana) and on reaching it vomited much. Never had I vomited after food, used not to do so indeed while drinking. **I became suspicious;** I had the cooks put in ward and ordered some of the vomit given to a dog and the dog to be watched [Beveridge, 1921, 542]. – Va nihoyat, men o'zimni eplay olmasligimni angladim, o'rnimdan turdim va har lahzada orqaga tisarilib (abxana) obxonaga qadam qo'ydim, unga yetib borganda juda ko'p qusdim. Men hech qachon ovqatdan keyin qusmaganman, ichayotganda ham bunday qilmaganman. Men shubhalana boshladim; men oshpazni qamattirib qo'ydim va qusuqni itga berishlarini va uni kuzatishlarini buyurdim.

Asliyatdagi FB *Ko'nglumg'a shubha kehti* S.Beverijda **I became suspicious** – Men shubhalana boshladim tarzida berilgan. Bovurchini saxlatib buyurdimkim, ul qaytni (qusuq) itga berib, itni saxlag'aylar gapi I had the cooks put in ward and ordered some of the vomit given to a dog and the dog to be watched, ya'ni mazmuni – men oshpazni qamattirib qo'ydim va qusuqni itga berishlarini va uni kuzatishlarini buyurdim, deb aks ettirgan. Uchinchi bor amalga oshirilgan V.Tekstonda asliyat matni quyidagicha berilgan:

When I got to the toilet I vomited a lot. I never vomited after meals, not even when drinking. **A cloud of suspicion came over my mind.** I ordered the cook to be held while the vomit was given to a



dog that was watched. [Thackston 1996, 373]. – Xojatga borganimda ko'p qusdim. Men ovqatdan keyin hech qachon qusmaganman, hatto ichganimda ham. **Xayolimda shubha buluti paydo bo'ldi.** Men itga berilgan qusuq belgi bermaguncha, oshpazni tutib turishlarini buyurdim. Oshpazlarni xibsga olishni buyurib, yomon go'shtni itga berishlarini so'radim, itni saxladim.

Ko'nglumg'a shubha kechti V.Tekstonda **A cloud of suspicion came over my mind** – Xayolimda shubha buluti paydo bo'ldi, deb o'girilgan; Bovurchini saxlatib buyurdimkim, ul qayni itga berib, itni saxlag'aylar, esa I ordered the cook to be held while the vomit was given to a dog that was watched – Men oshpazni itga berilgan qusuq belgi bermaguncha, uni tutib turishlarini buyurdim, tarzida tarjima qilinadi.

Mashhur tarixiy voqea va hodisalarni aks ettirishda har bir tarjimon asliyat mazmuniga bee'tibor emasligi sezilgan va o'zga tilda uch xil asar vujudga kelganligini ko'rish mumkin.

Yuqoridagi tahlillardan shunday xulosa kelib chiqadiki, berilgan misollar, asliyat matni va keltirilgan parchalarning yaxlit tarjimasini qiyosiy o'rganish, bo'lajak tarjimonlarning kasbiy malakasini oshiradi, ilmiy-badiiy adabiyot tarjimasidagi bilimlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tarjimonlar mumtoz asar tarjimasiga jiddiy yondashib, meros bo'lgan xronologik manbalar biz uchun ham noyobdir. Zero, tarjimalar davrini boshidan kechirgan asar "Boburnoma" xorijiy til va ona tilimiz rivojiga katta hissa qo'shgan va qo'shib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan turli davrda tarjima etilib, nashr qilingan xronologik asar – "Boburnoma"ni leksikografik aspektda tadqiq etishni taqazo etadi. Quyidagi misolga e'tibor qaratamiz:

Asliyat: **Ko'nglumg'a shubha kechti**

Tabdil: **Ko'nglimga shubha tushdi**

Ruscha tarjima: **В сердце у меня мелькнуло сомнение** – Юрагимда шубха чақнади.

J.Leyden-V.Erskin: **Some suspicion crossed my mind** – Ba'zi shubhalar miyamdan o'tdi.

**A.S.Beverij: I became suspicious** – Men shubhalana boshladim

V.Tekston: **A cloud of suspicion came over my mind.**–

Xayolimda shubha buluti paydo bo'ldi.

Ushbu tartibda keltirilgan tarjimalar tilni qiyosiy o'rganishda muhim ahamiyat kasb etib, tarjima nazariyasi va amaliyoti va badiiy tarjimada muqobillarini tanlashga xizmat qiladi. Ushbu ko'rinishda mazmun tugal maqolacha tarzida shakllanayotgan mavzuli lug'at

tuzish tushunchasini yuzaga keltiradi. “Boburnoma” usluban yetuk asar va uning tarjimalari ham ishonchli manba.

1528 yil kuzida Boburning sog‘ligi yomonlashadi, badanida harorat paydo bo‘lib, isitmadan qiynaladi va ibodatni ham arang bajargan Bobur kasallikdan tuzalish umidida Xoja Axrorning “Volidiya” risolasini tarjima qilishga kirishadi. Seshanba kechasi, safar oyining yigirma yettisida hazrat Xoja Axrorning “Volidiya” risolasini nazm qilmoq xotiring‘a kechti. Hazratning ruhig‘a iltijo qilib, ko‘nglumga kechurdimkim, agar bu manzum ul hazratning maqbuli bo‘lur, xud nechukkim, sohibi “Qasidai Burda”ning qasidasi maqbul tushub, o‘zi aflaj marazidin xalos bo‘ldi, men dog‘i bu orizadin qutulub, nazmimning qabulig‘a dalile bo‘lg‘usidur ... [Бобур 2002, 242], deb yozadi, Bobur va u tez ishga kirishadi. Har kuni 10 baytdan tarjima qilib, 10 kun ichida yakunlaydi, tez orada kasallikdan forig‘ bo‘ladi [Бобур энциклопедияси 2014, 183].

Demak, bu navbat Ko‘ngluga kechurmoqning, (dilidan o‘tkazmoq) muallif his hayajonli gaplari va badiiy estetik xislatlarini namoyon etadigan holatni kuzatamiz. Zahiriddin Bobur asarni yozishda iymon-e‘tiqod eng yaxshi fazilat ekanligini o‘zining kechinmalari orqali ijodiy faoliyatida isbotlaydi. Ushbu misolda FB ko‘ngluga kechurmoq orqali badiiy jarayonni ochib beradi:

Hazratning ruhig‘a iltijo qilib, ko‘nglumga kechurdimkim, agar bu manzum ul hazratning maqbuli bo‘lur, xud nechukkim, sohibi “Qasidai Burda”ning qasidasi maqbul tushub, o‘zi aflaj marazidin xalos bo‘ldi, men dog‘i bu orizadin qutulub, nazmimning qabulig‘a dalile bo‘lg‘usidur [Бобур 2002, 242]. –Hazratning ruhiga iltijo qilib, ko‘nglimdan o‘tqazdimki, agar bu manzuma hazratga maqbul bo‘lsa, “Qasidai Burda” sohibiga xuddi u zotning qasidasi maqbul tushib, falaj kasalidan xalos bo‘lgani kabi men ham bu xastalikdan qutulgayman va bu nazmimning qabuliga dalil bo‘lgay [Бобур 2008, 255]. Rus tilida ushbu misol quyidagicha berilgan. – Уповая на помощь духа досточтимо Ходжи, **я решил в своем сердце**, что если это намерение будет угодно досточтимому, мое избавление от припадка болезни окажется доказательством благосклонного принятия стихотворения подобно тому, как сочинитель «Касиды о плаще» избавился от паралича, когда его касида была принята [Бабур 2008, 200].

Shuning bilan “Qasidai Burda”ni tarjima qilishda Bobur ko‘nglug‘a kechgan shubha inglizcha tarjimada quyidagicha aks etgan:

**Placing my confidence in the soul** of the venerable Khwajeh,



I indulged a hope, that perhaps his reverence might be induced to receive my poem favourably, and to remove my disease, as he had done with the writer of the Kasideh, who, when he presented his Kasideh, had his offering accepted with favour, and was delivered from his palsy [Leyden 1826, 388, 389]. – Mashhur Xojaning qalbiga o'zimni ishongan holda **umid qilamanki**, ehtimol u mening she'rimni yaxshi qabul qilishga va Qasidaning yozuvchisiga qilgani kabi, mening kasalligidan xalos bo'lishga sabab bo'lishi mumkin. U Qasidasini taqdim qilganda, uning qurbonligi mamnuniyat bilan qabul qilingan va falajlikdan xalos bo'lgan.

S.Beverij ushbu misolni quyidagicha aks ettiradi:

It occurred to me to versify the Walidiyyah-risala of his Reverence Khwaja 'Ubaidullah. **I laid it to heart** that if I, going to the soul of his Reverence for protection, were freed from this disease, it would be a sign that my poem was accepted, just as the author of the Qasldatu'l burda freed from the affliction of paralysis when his poem had been accepted [Beveridge 1921, 610]. – Men Xoja Ubaydulloh ehtromiga Volidiyya risolasini she'riy bayon etishimga to'g'ri keldi. **Men ko'nglinga tugdimki**, Qasidai Burdaning muallifi bu azoblar va kasallikdan xalos bo'lgani kabi agar uning ruhiga iltijo qilib, hurmati uchun men buni qilsam, uning she'ri qabul qilinganda falaj azobidan xalos bo'lgani va undan ozod bo'lganidek, mening she'rim ham qabul qilinganligining belgisi bo'ladi, deb aytdim. V.Tekston tarjima variantini quyidagicha bergan:

On the eve of Tuesday the twenty-seventh it occurred to me to make a versified rendering of Khwaja Ubaydullah's treatise, the Walidiyya. On the eve of Tuesday the twenty-seventh it occurred to me to make a versified rendering of Khwaja Ubaydullah's treatise, the Walidiyya. **I put my confidence** in the saints intercession and said to myself, "If this intention is acceptable to the saint, then too, just as the author of the Burdas poem was accepted and he was cured of his paralysis, if I am delivered of this illness it will be sign of my poems being accepted" [Thackston 1996, 420]. – Men avliyoning iltifotiga ishonib o'z-o'zimga dedim: "Agar bu niyat avliyoga ma'qul bo'lsa, unda Burda she'rining muallifi qabul qilingan va falajdan xalos bo'lgan bo'ladi. Kasallik, bu mening she'rim qabul qilinganligining belgisi bo'ladi".

Asliyatdagi FB *ko'nglumga kechurdimkim* tabdilda *ko'nglimdan o'tqazdimki* deb berilsa, rus tilida *я решил в своем сердце* J.Leyden va V.Erskin *I indulged a hope* – *umid qilamanki*, S.Beverij *I laid it to heart* – *Men ko'nglinga tugdimki*, V.Tekston

*I put my confidence* – (iltifotiga) ishonib tarzida tarjima qiladi. Bu tarjimalarda S.Beverijning *I laid it to heart* – Men ko'nglimga tugdimki varianti asliyatga mazmunan yaqinroq kelgan.

### **Xulosa**

Muallif asarda qo'llagan ko'ngilga oid FB'larni quyidagi guruhga ajratish mumkin:

1. Emotsional holat: *hazin ko'ngul, ko'ngli tilamoq*
2. Ijtimoiy munosabat: *ko'ngul bermoq*
3. Gumon: *ko'nglida ne dog'larkim yo'q, ko'nglida egriligi bo'lmoq*
4. Mulohaza: *ko'nglug'a shubha kechmoq*
5. Qaror: *ko'ngluga kechurmoq*

FBlar tarjimasi va leksikografik xususiyatini o'rganish muammo ob'ektining dolzarbligini isbotlaydi. Asarda qo'llangan FBlar qaerda va qanday, kimga nisbatan qo'llanishidan qat'iy nazar ularning tarjimalari juda murakkab. Shunga qaramay tarjimonlar aksariyat hollarda FBlar ma'nosini to'g'ri talqin etgan. Lekin FBlar emas, balki gapning boshqa turkumiga kirgan so'z birikmasi, kishi ismlarining yozilishi, taransliteratsiya, joy nomlarining chalkashtirib yuborilishi ularning asliyatdagi mazmundan boshqa qo'llangan so'zlarga borib taqalishiga olib kelgan.

G.Salomov ta'kidlaganidek, frazeologizmlar semantik jihatdan umumlashgan ko'chma ma'noni ifodalasa, grammatik jihatdan ularning butunligi, komponentlarining o'zaro birikuv va gapda ham shu tartibini saqlab qolishi bilan izohlanishi kuzatildi. Ular tarjimalarda o'z ifodasini topgan. Milliy-madaniy xususiyatli FBlar tarjimada to'liq aks etganda tarjimonning matnosti havolasida noto'g'ri talqin etilgani aniqlandi. Bunga sabab FB ma'no faqat til sohibiga to'liq ayon bo'lishi tabiiy lekin tarjimonda ekstralingvistik hodisalar to'sqinlik qilishi yana bir bor isbotlandi.

Tarjimonlarning mumtoz asarni qay darajada o'z millati vakiliga yetkazib bera olganlik mahoratini FBlar tarjimasi orqali ko'p narsalarni o'rganish mumkinligiga amin bo'ldik. Bu jihatlar ko'zga ilmoq iborasining badiiy jihatdan asliyatni to'laqonli aks ettirganligini ko'rsatdi. Ushbu iborani ayol tarjimon S. Beverij tarjimasida yuqori saviyada aks ettirgani ma'lum bo'ldi. Bu joyda badiiy tarjimada gender masalasiga e'tibor qaratish tarjimaning maqsad va vazifasiga xizmat qilishi aniqlandi. V.Tekston (Samarqandning hukmdori Zuhrabegi haqida qo'llangan ko'zga ilmoq iborasi borasida) qattiqqo'llik va tanqidiy nuqtai nazari

tarjimada kuchli sezilgan. J. Leyden va V. Erskinlar ma'no ko'chishiga ko'proq e'tibor bergan bo'lsalar ham iboralar mazmunini aksariyat hollarda to'liq aks ettirishga harakat qilgan. Lekin shuni qayd etish kerakki, ba'zi jarayonlarni asliyatni aks ettirishdagi har uchala tarjimon deyarli bir xil aks ettirganini ham guvohi bo'ldik.

Shunday bo'lsa-da, yuqorida qayd etib o'tilganidek, millatga xos qadriyatlar tarjimonlarni asliyatga turlicha yondashuvini keltirib chiqargan. Yana aytish mumkinki, mumtoz asar tarjimalarini o'rganib, uning ko'p tillilik tekstologik lug'atini yaratish muhim va dolzarb deb ta'kidlaymiz. Lug'atning shakllanishini ushbu ko'rinishda rejalashtirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi va quyidagi mavzuli lug'at ko'rinishida ta'min etishni tavsiya qilamiz:

Asliyat: **Ko'nglumg'a shubha kechti**

Tabdil: **Ko'nglimga shubha tushdi**

Ruscha tarjima: **В сердце у меня мелькнуло сомнение**

Ж.Лейден-В.Эрскин: **Some suspicion crossed my mind**

А.С.Бевеиж: **I became suspicious**

В.Текстон: **A cloud of suspicion came over my mind.**

Yuqoridagi misollardan yaxlit mazmunga ega bo'lib, asliyat misolini saralab olishda albatta FB aks etgan va mazmun yakuni bir kichik maqolacha kabi tugal bo'lishini gapda ta'min etilishi lozim. Asliyatdan keltirilgan misollar va FBlar isbottalab bo'lishini nazarda tutgan holda, Bobur entsiklopediyasida keltirilgan tarixiy shaxslar haqidagi tavsifiy usuldan foydalanish maqsadga muvofiq. O'ylaymizki, ushbu tarjima variantlar albatta boshqa badiiy adabiyotlarimizni ingliz tiliga o'g'irishda tarjimonlarning ekvivalentlikni tanlash va tarjimada ta'minlash, o'rganishlari uchun foydali bo'ladi deb hisoblaymiz. Zero, "Boburnoma" va uning tarjimalari taqqiqot uchun xazinadir.

### **Adabiyotlar**

Beveridge, Anette Susannah. 1921. The Babur-nama in English. Emperor of Hindustan Babur. – London.

Варданян, Л.В. 2006. Концепт «душа» в английских русских и эрзянских фразеологизмах. /С:/Users/user/Downloads/kontsept-dusha-v-angliyskih-russkih-i-erzyanskih-frazeologizmah.pdf. 1.12.2020.

Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. 2002. Бобурнома. Тошкент: Шарқ.

Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. 2008. Бобурнома. Тошкент: Ўқитувчи.

Бабур, Заҳириддин Муҳаммад. 2008. Бабур-наме. Тошкент: Шарқ.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. 2014. Тошкент: Шарқ.

Leyden, John. 1826. Memoirs of Zehir-Ed-Din Muhammed Baber: Babur Emperor of Hindustan. London.

- Нуждина, О.Ю. 2004. Концепты «душа» и «тело» в языковой картине мира. Москва.
- Олимов, М. 2002. «Бобурнома»да Аллоҳ исмлари ва сифатлари талқини. Тошкент: Фан.
- Thackston, Wh.M. 1996. The Baburnama. Memoirs of Babur, Prince and Emperor. New York.

## Comparative analysis of english translations of phraseological units in semantic field “Soul” of “Baburname”

Ziyodakhon Teshboeva<sup>1</sup>

### Abstract

“Baburname” has become the property of world literature and it is a sparkled example of Uzbek literature. Today the study of its style, history of translations, the style of translators’ approaches made a significant contribution to solving the topical issues in the field of translation. The work “Baburname” is not only a treasure, but also its’ translations are the source of knowledge for studies of various purposes. The article provides a comparative analysis of phraseological units in lexical semantic field of *soul* used in “Baburname” and their Uzbek, Russian and three different English translation versions. The national and cultural aspects of phraseological units, the problem of reflection in translation are highlighted, and the author's style is referred to in some translation issues. The lexical and semantic field of *soul* and their English translations are distinguished and illustrated in this article.

**Key words:** “Baburname”, modern Uzbek version, Russian-English translation, phraseological units, soul, semantic field.

### References

- Beveridge, Anette Susannah. 1921. The Babur-nama in English. Emperor of Hindustan Babur. – London.
- Vardanyan, L.V. 2006. Konsept «dusha» v angliyskix russkix i erzyanskix frazeologizmax. /C:/Users/user/Downloads/kontsept-dusha-v-angliyskih-russkih-i-erzyanskix-frazeologizmah.pdf. 1.12.2020.

---

<sup>1</sup> Ziyodakhon K. Teshboeva – Doctor of science (Ds), associate-professor. Alisher Navo’i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

**E-mail:** teshaboyevaziyodaxon@navoiy-uni.uz

**ORCID:** 0000-0002-5917-756X

**For citation:** Teshaboeva, Z.K. 2021. “Comparative analysis of english translations of phraseological units in semantic field “Soul” of “Baburname”. *Uzbekistan: Language and Culture* 1 (3): 16-37.

- Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. 2002. Toshkent: Sharq.
- Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. 2008. Toshkent: O‘qituvchi.
- Babur, Zahiriddin Muxammad. Babur-name. 2008. Toshkent: Shark.
- Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. 2014. Toshkent: Sharq.
- Leyden, John. 1826. Memoirs of Zehir-Ed-Din Muhammed Baber: Babur Emperor of Hindustan. London.
- Nujdina, O.Yu. 2004. Konsepti «dusha» i «telo» v yazikovoy kartini mira. –M.
- Olimov, M. 2002. «Boburnoma»da Alloh ismlari va sifatleri talqini. Toshkent: Fan.
- Thackston, Wh.M. 1996. The Baburnama. Memoirs of Babur, Prince and Emperor. New York.